

MEDIATSIYA USULIDA XALQARO TIJORAT NIZOLARINI HAL ETISH**Otabaeva Maftuna Ravshanbek qizi**

Jahon iqtisodiyoti va Diplomatika universiteti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19651811>

Xalqaro munosabatlarning kengayishi bilan davlatlar va boshqa xalqaro huquq subyektlari o'rtasida iqtisodiy nizolar kelib chiqish ehtimoli oshdi. Iqtisodiy nizolar – bu tadbirkorlar va yuridik shaxslar o'rtasida iqtisodiy faoliyat davomida yuzaga keladigan huquqiy kelishmovchiliklar hisoblanadi. Bunday nizolar, ayniqsa, chet el elementi ishtirok etgan hollarda, xalqaro hususiy huquq normalari asosida hal qilinadi. Masalan, O'zbekistonda chet el elementi bilan murakkablashgan nizolar xalqaro shartnomalar va milliy qonunchilikka muvofiq tartibga solinadi.

Nizolarni hal etish jarayoni insoniyat tarixining ajralmas qismi bo'lib, u jamiyatlarning rivojlanish darajasi va madaniyati bilan chambarchas bog'liq. O'sha davrdayoq mediatsiya orqali turli nizolarni hal qilish ommalashgan, masalan, qadimgi Bobilda ko'pincha uchinchi shaxs vositasida nizolar hal qilingan (bu bo'yicha Hammurabi qonunlarida takidlab o'tilgan), Gretsiyada esa mediatorlarga murosachilar (proxenoi) deb murojaat qilingan va Rimda mediatorlarga *interpretes* va *conciliators* kelishmovchiliklarni hal qiluvchi uchinchi tomon sifatida qaralgan. Ayniqsa, Rim huquqida mediatsiyaning Yustinian kodeksidan boshlab milodiy VI asrda rasmiy tarzda e'tirof etilishi, va bu hodisa ushbu usulning huquqiy tizimlari shakllanishida naqadar muhim rol o'ynaganini ko'rsatadi. Mediatsiya Rimda nafaqat savdo nizolarini hal qilishda, balki jamiyatdagi tinchlikni saqlashda ham asosiy vositalardan biri bo'lgan.

Zamonaviy davrda esa mediatsiya yangi ko'rinishda qayta tiklandi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab AQSH, Buyuk Britaniya, Yevropa va Avstraliya kabi davlatlarda mediatsiya va muzokara usullari faol rivojlandi. Bugungi kunda Yevropada mediatsiya nafaqat savdo yoki biznes nizolarida, balki oilaviy va ijtimoiy mojarolarni hal qilishda ham samarali vositaga aylangan. Bunday yondashuv nafaqat vaqt va harajatlarni tejaydi, balki tomonlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni o'zaro hurmat asosida hal qilish imkoniyatini yaratadi.

Tijorat nizolari – bu xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida ularning iqtisodiy, moliyaviy, mulkiy yoki boshqa tijorat faoliyatiga oid manfaatlari to'qnashganida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar va ziddiyatlar majmuasidir.


Ushbu nizolar odatda xo'jalik xo'jalik yurituvchi subyektlar, tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi shaxslar yoki davlat organlari o'rtasida kelib chiqadi¹.

Tijorat nizolarining mohiyati shundaki, ular tadbirkorlik faoliyatining majburiy elementiga aylanib, korxonalar faoliyatining huquqiy va iqtisodiy jihatlari bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Tijorat munosabatlarning murakkablashishi, bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatning kuchayishi hamda shartnomaviy munosabatlarning rivojlanishi nizolarning paydo bo'lish ehtimolini oshiradi.

Bugungi kunda xalqaro hususiy huquqda iqtisodiy nizolarni hal qilishning muqobil usullari quyidagilarni tashkil qiladi:

¹Teshayev D. M. Mediatsiya nizolarni hal qiluvchi vosita sifatida //Academic research in educational sciences. – 2024. – №. 3. – C. 593-597.



Mediatsiya – bu (lotincha “mediato”, inglizcha “mediation” – vositachilik) ikki yoki undan ortiq tomonlar oʻrtasidagi nizolarni uchinchi tomon – mediator ishtirokida muqobil hal qilishning samarali usuli boʻlib va bu usul nizo boʻyicha maʼlum bir kelishuvni ishlab chiqishga yordam beradi, bunda tomonlar nizoni hal qilish toʻgʻrisidagi qaror qabul qilish jarayoni va uni hal qilish shartlarini toʻliq nazorat qiladi, bu esa ularning manfaatlari va qadriyatlariga mos yechim topishni taʼminlaydi.

Mediator – mustaqil, holis va professional vositachi boʻlib, nizolashayotgan tomonlarga oʻz pozitsiyalarini tushunishda va ular uchun maqbul boʻlgan kelishuvni ishlab chiqishda yordam beradi.

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy, iqtisodiy, shaxslararo munosabatlarning rivojiga xizmat qiladigan va ijtimoiy tizimning barcha shakllarida – oila, iqtisodiyot, mehnat bozori, davlatlar maʼmuriy amaliyotida keng qoʻllaniladigan, hayotdagi turli xil nizolarni tinchlik va muzokara yoʻli bilan hal etishning ilgʻor va muqobil usuli mediatsiyadir.

Mediatsiyaning afzalligi shundaki, u nizoni hal qilishning tezkor, iqtisodiy jihatdan tejamkor va vijdonan yondashuvga asoslangan usulidir.

Mediatsiya jarayoni, odatda quyidagi olti bosqichga boʻlinadi.

1. *Mediatorning ochilish va kirish bayonoti;*
2. *Nizolashayotgan taraflarning tushuntirishlari;*
3. *Qoʻshma sessiya;*
4. *Kengash yoki alohida sessiya;*
5. *Yakuniy muzokaralar va bitim tuzish;*
6. *Tugallanish (yopilish)².*

Xalqaro xususiy huquq sohasida iqtisodiy nizolarni hal qilishning samarali usuli sifatida arbitraj sudlari katta ahamiyatga egadir. **Arbitraj sudlari** – bu nodavlat tashkilotlar boʻlib, asosan, fuqarolik va iqtisodiy nizolarni tezkor va samarali yechishda yordam beradi.

² Abdullo oʻgʻli D. D. Mediatsiya va uning bosqichlari //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2023. – T. 2. – №. 1. – C. 258-265.

Ayniqsa, xalqaro tijorat shartnomalari, transchegaraviy bitimlar va investitsiya nizolarida arbitraj eng maqbul mexanizm sifatida e'tirof etiladi. Arbitraj sudlarining asosiy afzalligi – tomonlarning ixtiyoriy roziligi asosida ish olib borilishi va ularning qaysi davlat huquqidan foydalanishni mustaqil belgilash imkoniyati mavjudligi bilan o'lchanadi. Arbitraj sudlari ikkita shaklda bo'ladi:

1. **Ad hoc arbitraj** – bu bir martalik tuziladigan arbitraj bo'lib, tomonlarning kelishuvi asosida nizolarni hal qilish uchun tashkil etiladi. Ad hoc arbitrajda tomonlar ushbu jarayonning qoidalarini o'zlari belgilaydi.

2. **Institutsional arbitraj** – bu doimiy faoliyat yurituvchi arbitraj sudlari bo'lib, ushbu jarayon ayni bir tashkilot tomonidan boshqariladi.

Masalan, Xalqaro Tijorat Palatasi (ICC) yoki Xalqaro Investitsion Nizolarni Hal Qilish Markazi (ICSID) kabi arbitrajlarini misol qilib olishimiz mumkin.

Hozirgi kunda xalqaro iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqadigan ko'plab nizolarni arbitraj sudlarida hal qilinmoqda. Davlat sudlarining murakkab va ko'p bosqichli jarayonlari ko'pincha tomonlarni qoniqtirmaydi, chunki bu jarayon ko'p vaqt va mablag' talab qilmoqda.

Arbitraj sudlari esa, o'zining soddaligi, tezkorligi va maxfiyligi bilan ajralib turgani uchun tomonlar ushbu usulni nizolarni hal qilishda muvofiq yo'l deb tanlashmoqda. Masalan, ikki xalqaro kompaniya o'rtasida tuzilgan kontrakt bo'yicha nizolarni hal qilish uchun ular ICC arbitraj sudiga murojaat qilishlari mumkin. Chunki ushbu sud xalqaro tijorat va investitsiyaviy nizolarni hal qilish bo'yicha dunyodagi eng mashhur sudlardan biri hisoblanadi. Ushbu sud 1923-yilda tashkil etilgan bo'lib, bugungacha yuzlab murakkab nizolarni hal qilgan.

Bundan tashqari, Xalqaro Investitsion Nizolarni Hal Qilish Markazi (ICSID) – investitsiya nizolarini hal qilishda muhim o'rin tutadi. Ushbu markaz 1965-yilda qabul qilingan Vashington konvensiyasi asosida tashkil etilgan bo'lib, davlatlar va xorijiy investorlar o'rtasidagi nizolarni milliy yurisdiksiyadan chiqarib, xalqaro arbitraj maydoniga o'tkazadi³.

Muzokaralar — tomonlar o'z maqsadlariga erishish va umumiy yechim topish uchun olib boradigan muloqot jarayonidir. Ushbu jarayonda har bir tomon muammoni hal etishda teng imkoniyatlarga ega bo'lib, vaziyatni nazorat qilishga intiladi. Muzokaralar nizolarni hal qilishning eng oddiy, samarali va arzon vositalaridan biri bo'lib, ular iqtisodiyot sohasida ham keng qo'llaniladi. Chunki bu jarayon qo'shimcha xarajatlarga olib kelmaydi, xavf tug'dirmaydi va nizoni tinch yo'l bilan muhokama qilishga qaratilgan bo'ladi Muzokaralar odatda bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich – tayyorgarlik. Bu bosqichda tomonlar muzokaraga tayyorgarlik ko'rib, o'z talablarini bildiradilar yoki nizoni qanday hal qilish bo'yicha o'z fikrlarini o'rtaga tashlaydilar. Keyingi bosqich – muzokara jarayoni. Bu yerda tomonlar o'z takliflarini muhokama qiladi va nizoni hal etish uchun umumiy yechimga erishishga intiladi. Nihoyat, uchinchi bosqich – muzokaralarni yakunlash va natijalarni tahlil qilish. Bu bosqichda tomonlar kelishuvga erishib, nizoni har ikki tomon uchun maqbul bo'lgan yechim bilan hal etadilar.

Muzokaralar ko'pincha mediatsiyaga o'xshash bo'lib, faqat mediatsiya jarayonini professional mediatorlar olib boradi. Muzokaralar esa bevosita tomonlarning o'zaro muloqoti asosida kechadi.

³ Shodiyorovich N. A. Xalqaro tijorat arbitrajida arbitraj bitimining ahamiyati // o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – T. 2. – №. 18. – C. 601-606.

Ushbu jarayonning boshqa nizolarni hal qilish usullariga nisbatan bir qator afzalliklari bor. Avvalo, muzokaralarda tomonlar bevosita birgalikda harakat qiladilar va munosabatlarning turli jihatlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Masalan, muhokama vaqti hamda chegaralarni mustaqil ravishda belgilashlari mumkin. Shuningdek, ular jarayon va uning natijalariga bevosita ta'sir o'tkaza oladilar.

Xalqaro darajada mediatsiya institutining rivojlanishida Birlashgan Millatlar Tashkilotining roli beqiyosdir. 2002-yilda UNCITRAL Model Law on International Commercial Conciliation (Xalqaro Tijorat Keltishuvi to'g'risida Namunaviy Qonun) qabul qilindi, u davlatlarga mediatsiyani milliy qonunchilikka integratsiya qilish bo'yicha yo'riq sifatida xizmat qiladi. Keyinchalik, 2018-yil 20-dekabrda qabul qilingan va 2020-yil 12-sentyabrdan kuchga kirgan Singapur Konvensiyasi (United Nations Convention on International Settlement Agreements Resulting from Mediation) xalqaro tijorat nizolarida mediatsiya orqali erishilgan kelishuvlarning tan olinishi va ijrosini ta'minlash uchun huquqiy mexanizm yaratdi.

O'zbekiston Respublikasida mediatsiya institutining shakllanishi mustaqillikka erishganimizdan so'ng, huquqiy tizimni modernizatsiya qilish, sud islohotlarini chuqurlashtirish va nizolarni adolatli hal etish mexanizmlarini kengaytirish bo'yicha izchil siyosat olib bordi. Shu jarayonning mantiqiy davomi sifatida 2018-yil 3-iyulda "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

Ushbu qonun mediatsiyaning huquqiy asoslarini, mediatorlarning maqomini va jarayon tartibini belgilab berdi. 2022-yilda qabul qilingan o'zgartirishlar esa mediatsiya sohasining qo'llanish doirasini kengaytirib, uni iqtisodiy, fuqarolik va mehnat nizolarida qo'llash imkonini yaratdi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida Mediatorlar reyestri yuritilmoqda va professional mediatorlarni tayyorlash tizimi shakllangan.

Shuningdek, Toshkent xalqaro arbitraj markazi (TIAC) va O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzuridagi Mediasiya markazi xalqaro tajribani milliy amaliyot bilan uyg'unlashtirish bo'yicha faol ish olib bormoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev o'z chiqishlarida bir necha bor "nizolarni tinch yo'l bilan, murosaga asoslangan holda hal etish madaniyatini rivojlantirish" zarurligini ta'kidlagan. Bu esa mediatsiya institutining ijtimoiy-huquqiy ahamiyatini yanada oshiradi.

O'zbekiston xalqaro savdo maydoniga faol integratsiyalashayotgan bir davrda, xorijiy investorlar ishonchini oshirish uchun samarali nizolarni hal etish mexanizmlarini joriy etish muhimdir. Mediatsiya bu borada eng maqbul vositadir, chunki u:

- nizo taraflariga adolatli, tezkor va iqtisodiy yechim beradi;
- sud tizimidagi yukni kamaytiradi;
- huquqiy barqarorlikni mustahkamlaydi;

- investorlar uchun xavfsiz huquqiy muhit yaratadi. Shuningdek, mediatsiya jarayonida tomonlar qarorni o'zlari qabul qilganlari sababli, uni bajarishga nisbatan yuqori motivatsiyaga ega bo'ladilar. Bu ijro samaradorligini oshiradi va uzoq muddatli hamkorlikni saqlab qoladi. Shu sababli, ushbu mavzuda ilmiy ish olib borish va sohaga o'z takliflarimizni kiritish dolzarbdir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda davlatlar va boshqa xalqaro subyektlar o'rtasida tijorat munosabatlarining kengayishi va ular o'rtasida shakllanayotgan ko'p qirrali shartnomaviy munosabatlar nizolar paydo bo'lish ehtimolini ham oshirmasdan qolmaydi.

Ushbu vaziyatda tomonlarning nizoni hal qilish uchun suddan emas mediatsiyadan foydalanishlar ularga ancha yengillik beribgina qolmay, ular o`rtasidagi munosabatni ham saqlab qolishga sabab bo`ladi, chunki mediatsiya jarayoni shunday tuzilganki bunda tomonlar o`zaro kelishuvi ya`ni, tomonlarning roziligi bilan yakun topadi.

Sudda esa bir tomon yutqazadi, va o`rtaga nifoq tushib tomonlar boshqa kelishuvga erisha olmasliklari mumkin.

Ikkinchidan, mediatsiya sudga qaraganda tez va arzon bo`lib bu tomonlarga og`irlik qilmaydi, natijada ular kelib chiqqan nizoni tez hal qilib, yana birgalikda ish olib borishlari mumkin bo`ladi. Bu esa tomonlarning biznesi to`xtab qolishini oldini oladi, natijada ular yanada rivojlanishi va ko`plab boshqa davlatlar bilan ham hamkorlik qilishlari mumkin, chunki ularda nizo kelib chiqqanda tez va hamyonbop nizoni hal qilish imkoniyati mavjud bo`ladi.

Mediatsiya bu nafaqat nizolarni hal etadi, balki u tomonlarning uzoq va samarali munosabatlarini saqlab qolishda ham sababchi bo`ladi. Buning uchun nima qilish kerak? Albatta davlatlar o`z hududida mediatsiya sohasini kengaytirishi va aholi orasida huquqiy ongini rivojlantirishi lozim.

O`zbekistonda ham ushbu sohani kengaytirish lozim, chunki rivojlanayotgan davlat sifatida biz ham hozirgi kunda ko`plab xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqdamiz, agarda kelishmovchilik kelib chiqadigan bo`lsa, sud emas mediatsiyani qo`llaydigan bo`lsa, O`zbekiston uchun ham bu foydali bo`ladi, nizo qisqa vaqt ichida va arzon narxda hal bo`ladi, va tomonlar o`zaro kelishib olib, keyin ham hamkorlikni davom ettirishlari mumkin.